

XADICHA SULAYMONOVA – ILK O‘ZBEK HUQUQSHUNOS AYOLI

TDYU, Baratov Azim Shamsiyevich

Kriminalistika va sud ekspertizasi kafedrası mudiri yu.f.d.

TDYU, Qodirova Sevaraxon Zoyirjon qizi

*“Bir haqiqat ayonki, har qanday xalqning ma`naviy darajasini
avvalo, shu yurt ayollarining ma`naviy saviyasi belgilaydi”*

Shavkat Mirziyoyev

Xadicha Sulaymonova – XX asrda o‘zbek ayollaridan birinchi bo‘lib, sharq ayolining jamiyatdagi teng huquqi uchun mardonavor kurashgan ayol, yetuk huquqshunoslik ilmini egallab, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi akademik Xadicha Sulaymonova jinoyat huquqi va O‘zbekiston sud-huquq tizimida o‘ziga xos maktabga asos solgan olima hisoblanadi.

XX asr boshlaridagi suronli yillarda Andijon tomonlarga borib qolgan Sulaymon Kelgenboev ismli qozoq yigiti, o‘z davrining bilimdon va savodli insonlardan biri, mahalliy aholi ichida Otincha ismli qizga uylanadi. O‘zbekiston tarixining sahifalariga ko‘ra turli hil g‘alayonlar, uning ortidan kelgan og‘ir judoliklar, mana shunday ayanchli hayot sinovlari Kelgenboyev oilasini ham chetlab o‘tmadi. Tirikchilik g‘amida Turkiston o‘lkasiga borib qolgan Sulaymon Kelgenboyev yillar davomida, o‘zbek, qirgiz, tojik, turkman va rus tillarini mukammal o‘zlashtira oldi. Shu tufayli, Andijon boylaridan bittasi uni karvonsaroyiga ishga oladi. Karvonsaroyning ish boshqaruvchisi sifatida har xil millat vakillari, ayniqsa, karvonsaroyga maishat qilish uchun tez-tez keladigan rus mansabdorlari va politsiya pristaviga xizmat qila oladigan yagona kishi Sulaymon Kelgenboyev edi. Bir necha tilni bilishi tufayli u el qatori ro‘zg‘or tebratardi.

Xadicha Sulaymonovna Sulaymonova 1913-yil 3-iyulda Andijon shahrida ziyolilar xonadonida tavallud topgan. O‘lkada notinchlik zamoni boshlanadi. Afsuski, shunday paytlarning birida 1919–yil Sulaymon Andijonda to‘satdan bostirib kirgan qurolli bosqinchilar o‘qidan halok bo‘ladi. Xadichaning volidasi Otincha qat’iyatli, o‘qimishli va irodali o‘zbek ayollaridan edi. Erining vafotidan so‘ng qancha zahmat cheksa ham farzandlarini o‘zgalardan kam qilmaslikka harakat qildi. Xadicha Sulaymonovaning xolavachchasi Qurbongul Saidova xotiralarida “Otincha holam beshta bolasi – Yusufjon, Mo‘tabar, Xadicha, Niyozbek, Gulbahromlar bilan birga Andijonda yashar edi. Juda og‘ir, qonli fuqarolar urushi vaqtida otam holamni bolalari bilan birga Chimkentga ko‘chirib olib kelgan”, - qabilida shu kabi ma‘lumotlar mavjud. Qurbongul otam deb atayotgan kishi keyinroq Chimkent viloyati matbuot jamiyatini boshqargan Fozilbek Qultasovdir. 1937-yil 1-sentyabrda hibsga olingan. Bu

ma'lumotlarga ko'ra, Xadichaning oilasi bir muddat Chimkentda yashagan deb hisoblanadi. Tarixga nazar tashlasak, bolalik davrida qiyinchilik ko'rgan insonlar, katta bo'lganlarida buyuk shahsga aylanar ekan. Ehtimol, taqdir mashaqqatlari insonni toblasa kerak.

Xadicha akasi Yusufjon, opasi Mo'tabar, ukasi Niyoz bir kunda maktabga birinchi sinfga borar edi. Ajablantiradigan joyi yo'q, Sovet hukumatining dastlabki yillarida har xil yoshli bolalar bitta sinfdan o'qiyverardi. 1924-yilda volidasi Otincha pilla zavodiga ishga kiradi. Zavodda ishlash bilan birga o'zbek tili va adabiyotidan o'qituvchilar tayyorlagan kursda o'qiydi. Bu yerda olgan bilimi bilan zavod ishchilari va o'zi yashaydigan mahalla aholisi savodini chiqarish to'garagiga yetakchilik qiladi.

1924-yilda u bolalari bilan Andijonga qaytib keldi va shu yerda rus-tuzem maktabining uchinchi sinfida o'qishni davom ettiradilar. Xadicha Sulaymonovanning bolalik va yoshlik yillari Andijonda o'tgan.

Xadicha onasidan dadasining qanday inson bo'lganligi haqidagi hikoyalarni eshitib, dadasi kabi ko'p tillarni bilishni niyat qiladi. U davrlarda o'zbek zaminida vaziyat murakkab edi. 1926-yil ayollarning paranjisini yechib tashlash uchun "hujum" harakati boshlanadi. Bir tomondan unga qarshilar ham paydo bo'ladi. Shunga qaramasdan, ayol huquqi masalasi kun tartibidan tushmadi va tobora kuchayib ketdi. 1926-1927 yillarda mahalliy Sovetlarga saylov misli ko'rilmagan darajada hodisaga aylandi. Shahar Sovetlariga saylangan 5220 nafar deputatning 929 nafari, tuman Sovetlariga saylangan 1752 nafar deputatning 163 nafari, qishloq Sovetlariga saylangan 30613 nafar deputatning 3904 nafari ayol-qizlar edi.

Xadicha Sulaymonova tug'ilgan davr qirg'in-barot va hayotiy qarama-qarshiliklarga to'la bo'lgani sababli, taqdir bo'lajak olimani hali go'daklik davridayoq og'ir sinovlar bilan "siylagan" edi.

Buning hammasini o'qib-bilib yurgan Xadicha, bilim olsagina yutuqlarga erishishini anglab yetadi.

Bolalalik chog'larida bo'lib o'tgan muthish voqealar Xadicha Sulaymonovanning qaysi kasbni tanlashini oldindan belgilab berdi. 1929-yilda Marg'ilon shahrida bo'lib o'tgan Nurxon qizning qotillari ustidan bo'lib o'tgan sudda uning shaxsan ishtirok etgani Xadichada o'chmas taassurot qoldirdi. Nurxon san'atkor bo'lmoqchi bo'lgani, shariatga bo'ysunmay sahnaga chiqqani uchun akasi tomonidan vahshiylarcha o'ldirildi. Lekin eng muhimi, yosh Xadicha Sovet Sharqi ayollarining yengilmas ozodlik jarayoniga sinfiy dushmanlarning hech qanday fitnasi halaqit bera olmasligini tushundi. Hayotni endi anglay boshlagan Xadicha Sulaymonovanning ongida shu sud chuqur iz qoldiradi. Bunday sharoitda, Xadicha Sulaymonova huquqshunos bo'lib, feodal dunyosi qoldiqlariga qarshi, adolat uchun, yangi hayot uchun, o'zbek ayolining to'liq ozodligi, erkinligi va tengligi uchun kurashishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Milliy huquqshunoslik maktabiga tamal toshini qo`ygan siymolardan biri Xadicha Sulaymonova edi. Xadicha Sulaymonova 1931-yilda rus-tuzem maktabini tamomladi.

Xadicha Sulaymonova hayotida bo`lib o`tgan adolatsizliklar, nohaqliklarni ko`rganlari va bevosita shohidi bo`lganligi tufayli yoshligidan huquqshunos bo`lishga qat`iy qaror qildi. Bu maqsad uni o`n sakkiz yoshida Toshkent davlat huquq institutiga yetakladi. 1935-yil institutni imtiyozli diplom bilan tamomladi. Ustozlar va rahbarlar nazariga tushgan bu yosh qizaloq ko`p o`tmay, O`zbekiston Oliy Sudiga ishga taklif qilinadi.

1939-1941 yillarda Moskva yuridik instituti aspiranturasida taxsil oladi. 1941-1954 yillarda Toshkent yuridik instituti jinoyat huquq kafedrasida dotsenti va mudiri lavozimlarida faoliyat ko`rsatadi. 1954-1955 yillarda mazkur institutning rektori vazifasida ishlaydi. 1955-1956 yillarda Toshkent yuridik instituti tugatilib, O`rta Osiyo universitetining yuridik fakultetiga aylantirilgach u yerda dekan vazifasini bajaradi. O`zbek xotin-qizlari orasida birinchilardan bo`lib, 1951 yilda “O`zbekistonda jinoyat huquqining vujudga kelishi va rivojlanishi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qiladi. 1952 yilda unga professorlik ilmiy unvoni berildi. Juda harakatchan, izlanuvchanligi, jamoat ishlaridagi faolligi, mehnatsevarligi va tashabbuskorligi tufayli u Toshkent davlat yuridik institutining rektori etib tayinlandi. 1956-1959 yillarda Adliya vaziri, 1959-1964 yillarda O`zbekiston Respublikasi Ministrlar Soveti huzuridagi Adliya komissiyasi raisi, 1964-yildan O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi lavozimlarida faoliyat ko`rsatdi. O`zbekiston Fanlar akademiyasi Falsafa va huquq instituti, Adliya vazirligi huzuridagi Sud ekspertizasi ilmiy tadqiqot markazi tashkil etishda bosh-qosh bo`ldi.

Zukko olima, talabchan rahbar hislatiga ega bo`lgan Xadicha Sulaymonova, ko`plab shogirdlar yetishtirdi. Uning bevosita rahbariligida bir qator yoshlar nomzodlik doktorlik dissertatsiyalarini himoya qildilar. Xadicha Sulaymonova o`zbek ayollaridan birinchi akademik sifatida tarixga muhrlandi. Xadicha Sulaymonova katta davlat va jamoat arbobi darajasiga ko`tarildi. U o`zbek fani va siyosiy ta`limotlar tarixi targ`ibotchisi sifatida Xitoy, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Bolgariya, Chexiya, Slovakiya, Afrika mamlakatlari va boshqa qator xorijiy davlatlarga tashrif buyurdi. Xalqaro kengashlar, simpoziumlar, global muammolarga bag`ishlangan turli anjumanlarda ishtirok etdi va ma`ruzalar qildi.

Biroq sobiq sovet imperiyasi siyosati adolatparvar Xadicha Sulaymonovaga mutlaqo ma`qul kelmadi. Ayniqsa, u faoliyat yuritayotgan *adolat qo`rgoni* bo`lmish, sud tizimidagi adolatsizliklar uning vijdonini kundan-kunga kemira boshladi. Bu adolatsizliklar oxir oqibat uni og`ir xastalikka duchor qildi. 1965-yil 26-noyabrda Xadicha Sulaymonova og`ir va uzoq davom etgan kasallikdan so`ng hayot va iste`dod cho`qqisida olamdan o`tdi. O`zbekning salohiyatli olimasi, xalqning suyuqli farzandi, taniqli huquqshunos, katta davlat va jamoat arbobi, akademik Xadicha Sulaymonova

mangulikka rihlat qildi. U iqtidorli olimlardan biri bo‘lib, Respublikada huquqshunoslik va sovet qonunchiligi rivojiga katta hissa qo‘shdi.

Inson dunyodan o‘tib ketaveradi, lekin el-yurtiga xizmat qilgan komil kishining, ezgu ishlari mangulikka dahldor bo‘ladi, xalqining yuragida mangu yashaydi nomi boqiy bo‘lib qolaveradi. Xadicha Sulaymonova vafot etgan bo‘lsada, uning nomi hali hamon shogirtlari, ilmiy-jamoatchilik, xalqimiz qalbida ikkinchi umr sifatida yashab kelmoqda.

Biz kim Xadicha Sulaymonovaning izdoshlari bugun matonat namunalarini ko'rsatgan, Vatan himoyasida fidoyilik ko'rsatgan ota-bobolarimiz qahramonliklarini hech qachon unutmeymiz. Ular bilan umrbod faxrlanamiz. Ajdodlar oldidagi farzandlik burchimiz – xalqimiz jasoratini unutmazlik, xotirasini abadiy yodda saqlash, tarixdan kerakli xulosalar chiqarish, yoshlarimizni shunday zaminda yashashdan faxr-iftixor tuyish ruhida tarbiyalashdir.